



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## SERBARGLI ITTIKANAK (BIDENS FRONDOSA) O'SIMLIGINI TAYYORLASH VA QAYTA ISHLASH

**Ganiyev Abdumo'min Qahhor o'g'li**

*Guliston Davlat Universiteti professor o'qituvchi*

**G'ayratova Feruza Ixtiyor qizi.**

*Guliston Davlat Universiteti 4-kurs talabasi*

*Guliston Davlat Universiteti*

**Anotatsiyasi.** *Dorivor o'simliklar tabobatda va tibbiyotda ishlatiladigan, tarkibida organizim uchun kerak boladiga biologik faol moddalar saqlovchi o'simliklar bolib, hozirgi paytda ularga bo'lgan talab yuqori bo'lganligi sababli turli xil fitobarlarni ochilishiga bundan tashqari sanoatning boshqa sohalarini ham rivojlanishiga olib kelmoqda. Quyda gi tavsiya etilayotgan serbargli ittikana o'simligi (bidens frondosa) ham yuqori tarkibli dorivor o'simliklar qatoriga kiradi. Ushbu tezida serbargli ittikanak o'simligining tayyorlash va qayta ishlash haqida qisqacha bayon qilingan*

**Kalit so'zlar:** *Ikkilamchi ishlov berish, stilyaj, saqlash, qog'oz qoplar, qadoqlash, gul, dorivor o'simliklar, xomashyo*

**Anotation.** *Medicinal plants used in medicine and medicine, need for my organism in the composition of the baby being plants that store biologically active substances, which, due to the high demand for them at the moment, leads to the opening of various phytobars, in addition to the development of other areas of the industry. The recommended serrated itticana plant (bidens frondosa) below is also among the high-content medicinal plants. This thesis summarizes the preparation and processing of the serrated itticanak plant*

**Keywords:** *secondary processing, stylization, storage, paper bags, packaging, flower, medicinal plants, raw materials.*

**Примечание.** *Лекарственные растения-Растения-хранители биологически активных веществ, используемых в медицине и медицине, которые необходимы организму в связи с высоким спросом на них в настоящее время, что приводит к открытию различных фитобар, а также к развитию других отраслей промышленности. Следующее рекомендуемое растение иттукана серболистная (bidens frondosa) также является одним из лекарственных растений с высоким содержанием. В этой диссертации кратко описывается подготовка и обработка растения иттукан серболистный*

**Ключевые слова:** *вторичная обработка, укладка, хранение, бумажные пакеты, упаковка, цветы, лекарственные растения, сырье.*

### **Kirish.**

O'rta asrlardan bizga shifobaxsh o'simliklarni tarifi va ularni inson salomatligini yaxshilashda qollanishiga doir korgina malumotlar mavjuddir. Dorivor o'simliklardan



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



nafaqat oziq ovqat sanoatida balkim biologik faol moddalar sifatida ham keng foydalaniladi. Dorivor o' simliklar uzoq davrlardan mobaynida dorivor vositalarning yagona manbai bolib xizmat qiladi [1]. Dorivor o' simliklarni tayyorlash saqlash va qayta ishlash texnologiyasiga doir dastlabki umumiy ma'lumotlarni IX-X asrlarda bayon etilgan bo'lib, bunda asosan Yevropa davlatlari bilan savdo sotiq orqali ularni Markaziy Osiyoga kirib kelishi va chiqishiga doir ma'lumotlarni uchratishimiz mumkun. Ushbu tezisda serbargli ittikanak o' simligini xomashyo qismini tayyorlash va qayta ishlash haqida ma'lumotlar keltirilgan. [4]

**Yig'ish.** Serbargli ittikanak o' simligining guli, bargi va yosh uchki qismlarini yig'ishtirib olamiz. Serbargli ittikanak o' simligi gullagan paytida yig'ib olinishi kerak bo'ladi, ya'ni yalpi g'unchalash paytida terib olish boshlanadi va yalpi gullashning boshlarida yakunlanadi. Bu gullash davomiyligi may- iyul oylariga tog'ri kelib, osha davrlarda terib olishimiz kerak bo'ladi. [2]

**Birlamchi ishlov berish.** Biz birlamchi ishlov berganimizda asosan gullari, barglari va yosh uchki qismlaridan boshqa qismlarini tozalab olishimiz kerak bo'ladi. Masalan: begona o't- o' simliklardan, har xil o' simlik ildizlari, zamburug'lar, serbargli ittikanak o' simligining yer ostki qismlaridan tozalab olishimiz kerak boladi.

**Quritish.** Birlamchi ishlov bergan xomashyomizni endi quritishimiz kerak bo'ladi. Quritish jarayonida xomashyoni 5-7 sm qalinlikda qilib yoyib chiqishimiz kerak bo'ladi. [3] Keyin esa, ularni turli quritish usullari bilan quritib olamiz. Masalan; stilyajlarda quritishimiz ham maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari havo yaxshi aylanadigan, yelvizak joylarda quritish ham maquldir. Agarda quyosh tog'ridan tog'ri tushadigan joylarda quritilsa, xomashyo qismlari yer ustki qismlari bo'lganligi sababli ular tarkibidagi xlorofil moddasi parchalanib ketishiga olib keladi. Buning natijasida xomashyoning sarg'ayib ketishiga olib keladi.

**Ikkilamchi ishlov berish.** Serbargli ittikanak xomashyosiga ikkilamchi ishlov beramiz. Sifatli qurigan serbargli ittikanak xomashyosi egilmasdan sinish kerak bo'ladi. Bu holat xomashyoning tog'ri quriganidan dalolat beradi. Poyalari va yosh uchki qismlari kattaligi 15 sm gacha bolishi kerak. Agar burglar yashil yoki yashi- qo'ng'ir rangda bo'lsa, poyalari yashil yoki yashil siyohrang rangda bo'lsa xomashyo tog'ri qurigan deb qaraladi. Xomashyo qurigan paytida biroz yopishqoqroq bo'lishini kuzatishimiz mumkundir. [2]

**Idishlarga joylash.** Idishlarga joylashda biz albatta xomashyoga e'tibor berishimiz kerak bo'ladi. Xomashyo turiga qarab yashiklarga, qog'oz qoplarga, xar xil karton idishlariga solishimiz mumkun bo'ladi. Serbargli ittikanak o' simligini 4 qavatli qog'oz qoplarga solib olamiz. Sababi, xomashyomiz barg, gul, yosh uchki qismlar bolganligi sababli ular og'ir boladi. 2 qavatli qog'oz qoplarni yitrib yuborishi mumkundir. Bazi bir o' simlik turlarining xomashyolari borki, ular 2 qavatli qog'oz qoplarda ham yetrilmaydi. Ularga misol qilib moychechak xomashyosini (gullarini) keltishimiz mumkundir.

**Saqlash.** Serbargli ittikanak xomashyolarini saqlashda juda ham extiyotkorlik talab etiladi. Agarda xomashyoni saqlashda xatoliklarga yo'l qoyiladigan bo'lsa, xomashyomiz





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



sifatsiz xomashyo deyiladi. Xomashyoni saqlashda asosan hona haroratidagi namlik miqdorini ham etiborga olishimiz kerak bo'ladi. Serbargli ittikanak o'simligi xomashyosini saqlashda havo yaxshi aylanadigan, yelvizak bo'lib turadigan, quruq joylarda saqlanadi. Yuqorida keltirilgan shartlarga mos bolgan xonalarda serbargli ittikanak o'simligi xomashyosi 2 yilgacha saqlansa bo'ladi.[1]

**Qayta ishlash.** Xomashyolarni qayta ishlashda Davlat Farmakopiyasi standartiga mos ravishda qilib tayyorlanish kerak bo'ladi. Serbargli ittikanak o'simligimizni ham standartga mos ravishda qilib maydalab olishimiz lozimdir. Serbargli ittikanak xomashyosi gullari, poyasi, barg qismlari bo'lganligi sababli ularning kattaligi 15 smgacha maydalaniladi[3]. Bu kattalikdan yuqori yoki kam bo'lmasligi kerak.

**Qadoqlash.** Qadoqlash jarayoni asosan to'ldirish, yopish, yoriqlash, saqlash kabi jarayonlardan iborat bo'ladi. Serbargli ittikanak o'simligi xomashyosini avval paketchalarga joylashtiramiz. Keyin esa ularni tartib bilan karton idishlarga joylaymiz. Har bir karton idishlarga 10 tadan paketchalarni solib chiqishimiz lozimdir. Karton idishlar ustini propilin bilan vakumsiz qoplanadi. Bu propilin qog'ozi namlik o'tqazmedigan qog'ozdir. Karton idishlarni propilin bilan qoplanish jarayoni aparatlar yordamida amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Bu tezisdan shuni xulosa qilamizki, dorivor o'simliklarni xomashyo tayyorlashda ularni har bir elementiga etibor berishimiz kerak boladi. Ularni tog'ri yig'ish, quritish, saqlash murakkab jarayondir. Serbargli ittikanak o'simligi xomashyosi yig'ib olishdagi xatolarga yo'l qoymasligimiz, ularni to'g'ri qurita bilishimiz, saqlashdagi xatolarga yo'l qoymasligimiz zarurdir.

### Adabiyotlar.

1. E.T. Berdiyev, E.T. Axmedov "Tabbiy dorivor o'simliklar" Toshkent-2017 yil nashiryoti. 178 bet (108-109 bet)

2. E.E. Abdunazarov "Surxandaryoning dorivor o'simliklari" Termiz -2017 yil nashiryoti. 139 bet (45-46 bet)

3. E.T. Berdiyev, E.T. Axmedov "Dorivor o'simlik xomashyolarini tayyorlash, saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi" maqola Toshkent-2019 yil nashiryoti. 121 bet (23-27 bet)

4. O.R. Xo'jamqulov "Dorivor o'simliklar xom-ashyolarini tayyorlash, saqlash va dastlabki qayta ishlash" uslubiy qo'llanma. Guliston-2023 yil nashiryoti. 32-bet (15-16 bet).